

Toshkent viloyatidagi tarixiy-arxeologik yodgorliklar bo'ylab press-tur tashkil etildi


O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Yangi O'zbekiston universiteti bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari vakillari hamda Universitet talabalari uchun Toshkent viloyatidagi tarixiy-arxeologik yodgorliklar bo'ylab press-tur tashkil etildi.



Press-turda "Olmaliq" KMK madaniyat saroyi faoliyati, u yerda tashkil etilgan Tunkat hamda Suyurlitepa arxeologik obyektlaridan topilgan buyumlar jamlangan muzey, Toshkent viloyati Piskent tumanida joylashgan Korxona (Qorixona), Toshkent viloyati Ohangaron tumani Tunkat (Yangiobod MFY) hamda Toshkent viloyati Ohangaron tumani Suyurlitepa yodgorliklari (Sanam MFY), u yerda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar bilan yaqindan tanishdilar.

Press-turdan ko'zlangan maqsad - tarix va arxeologiya fanlari haqida aholining bilimlarini kengaytirish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, ularni arxeologik obyektlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash, daxldorlik hissini oshirishi, so'nggi arxeologik tadqiqotlar bilan yaqindan tanishtirish.

Press-tur ishtirokchilari dastlab OAV vakillari hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari Olmaliq KMK madaniyat saroyi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Mazkur madaniyat saroyida 2 ta muzey bo'lib, birinchi muzey "Olmaliq" KMK faoliyatiga, ikkinchi muzey esa Suyurlitepa arxeologik tadqiqotlariga bag'ishlangan.



Shundan so'ng ishtirokchilar Qurama tizmasining shimoliy qismida, Olmaliq shahridan janubiy-sharqqa yo'nalishdagi 26 km da masofada Qovuldi koni yaqinida, Nanaysoyning chap qirg'og'ida joylashgan XVI asrga tegishli ekanligi aytilayotgan Qorixona bilan tanishdilar. O'n olti metr balandlikdagi do'nglikning ichi o'yilib, uch qavatli holda 18 ta hujra hozirlangan. Har bir qavatning o'rtasi o'n metrli koridor, ikki yonda esa uchtdan hujra mavjud. Qavatlar orasida oddiy soz tuproq zinaga aylantirilgan. Shimol tomondan birinchi qavatga kiraverishdagi dastlabki chap hujrada Eshmat Hojixon degan eshonning jasadi ko'milgan. 1934 yilda professor M.E.Masson tomonidan o'rganilgan ushbu inshootning hayratlanarli jihati shundaki, unda birorta yog'och, g'isht, tosh, guvala yoki loy ishlatilmagan.

Press-tur ishtirokchilari Tunkat arxeologik obyektida ham bo'lishdi. Tunkat Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan so'nggi antik va ilk o'rta asrlar (IV-XII)ga tegishli manzil hisoblanadi ham dengiz sathidan balandligi 607 m joylashgan, maydoni 180 ga teng.

Ohangaron vodiysining qadimgi va o'rta asrlarda ma'dan ishlab chiqarish tarmoqlari yuksak darajada rivojlangan iqtisodiy-xo'jalik, sanoat markazi hisoblangan. Tunkat tog' sanoati, ya'ni qora va rangli metall xomashyosi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan markaziy shahridir.



Suyurlitepa yodgorligi Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Qorabuloq qishlog'ida joylashgan. U Iloq mulkligining muhim shaharlaridan biri hisoblanadi. Suyurlitepa so'nggi antik, ilk va o'rta asrlar davriga oid yodgorlik (IV-XII). Dengiz sathidan balandligi 752 m, maydoni 100 ga.





1960 yilda akademik Y.F.Buryakov tomonidan qayd etilgan. Uning qaydlarida yodgorlik nomi Seviltepa yoki Munchoqtepa shaklida tilga olinadi.

Suyurlitepa yodgorligi hududining kattaligi jihatidan Toshkent vohasining Qanqa (Xarashket) (160 ga), Tunkat (120 ga), Banokat (Shohruxiya) shaharlaridan keyingi uchinchi yodgorlikdir. Suyurlitepa yodgorligida shaharga xos barcha yelementlar mavjud bo'lib vag'nze (diniy hokimyat) mulki, ark (arki a'lo, ko'xandiz), aholi turar-joylari – shahriston, shaharning tashqi qismida – rabot hamda shahar qabristonlari aniqlangan.

Ishtirokchilar mazkur yodgorlikda ham bo'lishib, arxeologlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni kuzatishdi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.

Fanlar akademiyasi va Yangi O'zbekiston universiteti tomonidan tashkil etilgan ushbu tashabbus tarixiy merosni saqlash va ommalashtirish, yoshlarning ilmga bo'lgan qiziqishini oshirishda xizmat qiladi.